

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900187>

## YANGI O'ZBEKISTONNI QURISHDA OTA-ONALARING BOLALARNI TARBIYALASH VA TA'LIM BERISH BORASIDAGI MAJBURIYATLARI

**Turakulov Boyburi Kuzimuratovich**

Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyi  
huquqshunoslik fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilada farzandlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ota-onaning roli, farzandning ta'lif olishi uchun ota-onaning bevosita javobgar ekanligi masalasiga e'tibor qaratilgan

**Kalit so'zlar:** Muqaddas oila, ota-ona, er-xotin, farzand tarbiyasi, mas'uliyat, burch, ta'lif, tarbiya, vasiylik, homiylik.

**Аннотация:** В статье акцентируется внимание на роли родителей в воспитании детей в семье как гармонично развитой личности, прямой ответственности родителей за воспитание ребенка.

**Ключевые слова:** Святое семейство, родители, супруг, воспитание ребенка, ответственность, долг, образование, обучение, опека, покровительство.

**Abstract:** This article focuses on the role of parents in the upbringing of children in the family as a harmoniously developed person, the direct responsibility of the parents for the education of the child.

**Keywords:** Holy family, parents, spouse, child upbringing, responsibility, duty, education, training, guardianship, patronage.

Insonning jamiyatda tutgan mavqeyiga bog'liq bo'lmagan bir kasb borki, u otalik va onalikdir. Ular o'z farzandlarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida mas'uldirlar. Oila mustahkamligi, ma'naviy va jismoniy barkamol farzand jamiyat mustahkamligi va ma'naviy yetuklikning garovidir.

Oila tarbiyaning asosi, maqomi va poydevoridir. Bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishi oiladagi muhitga – tarbiyaviy ta'sirga, oila tarbiyasining samarasi esa bevosita oilada ota-onalar obro'si va shaxsan namuna ko'rsatishlariga bog'liq.

Ota-onalar farzandlariga yaxshi xulqlari bilan namuna, ibrat bo'lishlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, bolani bilim olishga, o'z kelajagiga befarq bo'lmay oldida bir maqsad bilan harakat qilishga undaydi.

Farzandni boqib katta qilish, uni ruhan barkamol, ma'naviy komil, jismonan sog'iom qilib o'stirishda ta'lim va tarbiyaning o'rni nihoyatda muhim.

Bolalarning xulq-atvoridagi xatolar ota-onalarning xatolaridir. Oila, oila a'zolarining, ayniqsa, ota-onaning axloqiy-ma'naviy yetukligi, ma'rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur hamda muhim omillardan biri hisoblanadi. Oila bolalarni kelajakdagi er-xotinlik, shuningdek, oilaviy hayotga tayyorlovchi mактабdir.

Ming afsuski, farzandni dunyoga keltirib, uning tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor ko'rsata olmayotgan ota-onalar yoki yuzaga kelayotgan salbiy vaziyatlarni ko'ra-bila turib, befarq qarab turgan qarindosh-urug'lar va jamoatchilik ham oramizda yetarlicha uchrab turibdi.

Ta'lim olish imkoniyatidan foydalanmasdan, hech qanday sababsiz maktabga bormasdan o'z vaqtini behuda o'tkazayotgan bolalar ta'lim-tarbiyadan chetda qolib ketishi aslida jamiyat uchun kechirib bo'lmas xatodir.<sup>124</sup>

Vaholanki, ota-onaning bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-moddasida javobgarlik normasi belgilangan.

Hozirda notinch va noqobil, ichkilikka ruju qo'ygan farzand tarbiyasiga befarq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarni ta'lim olishlari uchun hamkor tashkilotlar bilan birgalikda joylarda manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2020-yilning o'tgan davri mobaynida ajralish yoqasiga kelib qolgan oilalarni yarashtirish natijasida 11 ming 500 nafar bolalar ota-onalari bag'riga qaytarildi.

Oilaviy ajralishlar sababli otasi yoki onasi bilan qolgan, ya'ni to'liqsiz oilada tarbiyalanishga majbur bo'lgan bolalar soni 7 ming 750 tani tashkil qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ota-onalarning mehnat migratsiyasi ta'sirida oilalarning ikki yoki undan ko'p bolalari nazoratsiz tashlab ketilmoqda. Mahallalar tomonidan ota-onalar nazoratisiz qolgan bolalarni majburiy ta'limga jalb qilingan bo'lishlariga qaramay, ularning bilim darajalari pastligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligidagi voyaga yetmagan bolalarning bir qator shaxsiy nomulkiy huquqlari ko'rsatilgan, ya'ni har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bola o'z otaonasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har tomonlama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shuningdek, ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ota-onaning bola oldidagi huquqlari unga g'amxo'rlik qilish, ta'lim-tarbiya berish, uni parvarish qilish va boshqa vazifalardan iborat.

Farzandi oldida ota-onaning o‘z huquq va majburiyatlarini bajarishi faqat axloqiy qoida bo‘lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchi hamdir.

2020-yilning iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 5-yalpi yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasida (Bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik) ko‘zda tutilgan jarimalar miqdorining oshirilishi, xususan ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan, voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishga olib kelishi holatining mavjudligi ustidan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha jarima solish. Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solish. Bolaning majburiy umumiyligi o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishiga ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to‘sinqilik qilish bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha jarima solish.

Huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘lishi to‘g‘risidagi normalar qat’iy belgilab qo‘yilgani, amaliyotga joriy etilishi oilalarda farzandlarning tarbiyasi va ta’lim olishida ota-onalarning mas’uliyati va majburiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o‘g‘il uylantirish, kelin tanlash, farzandlar tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko‘targani bejizga emas. Zero, yurt taqdiri, millat kelajagi va davlatning qudrati sog‘lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun, kerak bo‘lsa, jonini fido qiladigan yoshlar qo‘lida. Bunday insonlar ilk bor vatan ichra vatan bo‘lgan oilada tarbiyalanadilar.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
2. <https://lex.uz/acts/-97664>
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 5-yalpi yig‘ilishi hujjatlari.
4. 2020-yil 19-iyun. <https://xs.uz/uz/post/>
5. “Temur tuzuklari”© 2016-2020 – [www.temurtuzuklari.uz](http://www.temurtuzuklari.uz)